



TYUTORLAR UCHUN ISH JARAYONINI TASHKILLASHDA TALABA SHAXSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi

FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
madinabonumuhammadjonova07@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada talabalarga tyutorlik qilishning asosiy maqsadi va motivatsiyasi orqali tarbiyalanuvchi talabalarning qaysi sohalarda rivojlanishga erishishi mumkinligi, tyutorlar uchun talaba shaxsini o'rganish qay darajada muhimligi va qaysi xususiyatlarini hisobga olib ish tashkillash kerakligi haqida ma'lumot va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tyutorlik, maqsad, motivatsiya, xususiyat, talaba shaxsi, maqsadga va amaliylikka yo'naltirilgan, ko'nikma, munosabat.

АННОТАЦИЯ : В данной статье представлены информация и рекомендации об основной цели и мотивации репетиторской деятельности студентов, в каких сферах может быть достигнуто развитие, насколько важно тьютору изучать личность студента и какие особенности следует учитывать при организации работы.

Ключевые слова:репетиторство, цель, мотивация, черта характера, личность ученика, целеустремленность и практичность, умение, отношение.

ABSTRACT : This article provides information and recommendations about in which areas students can achieve development by the main goal and motivation of tutoring, how important it is for tutors to learn the student's personality, and what characteristics should be taken into account when organizing the work.

Keywords:tutoring, goal, motivation, trait, student personality, goal-oriented and practical, skill, attitude.

KIRISH: Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi zamonda oliv o'quv yurtlari uchun talabalar bilan hamkorlikda ish olib borish ta'lim sohasida rivojlanishga erishishning eng tez va samarali usullaridan biriga aylandi. Shu sababli mahoratlari tyutorlarning o'rni va ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Har bir institut va universitetlarda tyutorlar talabalar bilan ishlash va ularga har jahbada yordam ko'rsatishga kirishganlar. Tyutorlar o'z faoliyatini sifatli tashkillash va talabalar bilan olib boriladigan treninglarini takomillashtirish uchun bir qancha tavsiya va qo'llanmalarga ehtiyoj sezadilar. Shu maqsadda ko'plab izlanish va o'rganish ishlari ketmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tyutorlik ta'lim berishning eng qadimgi ko'rinishlaridan biri xisoblanadi. Qadimgi Yunoniston davrida ko'plab sa`nat va bilim ustalari zodagon oila farzandlariga ta'lim berishgan. Bu xususiy tartibdagi ta'lim berish tizimi xozirgi davr tyutorlik faoliyatining ilk ko'rinishidan biri edi. Tadqiqotchilarning yozishicha tyutorlikni qadimgi davrlardan, misol uchun Rim imperiyasi davrida xam kuzatish mumkin. Qadim zamonlarda bilim olishning yagona manbai tyutorlik bo'lib, bu ta'lim faqat o'sha davrining elitasi uchun mo'ljallangan edi. Qadimgi antik davrdagi tyutorlar – faylasuflar, yozuvchilar, va olimlar bo'lishgan. Ular o'z o'quvchilariga akademik bilimdan ko'ra ko'proq narsani o'rgatishlari kerak bo'lgan.

Diagnostik funksiya tyutorning funksiyalari ichida eng muhimlaridan biri bo'lib, u muhim harakatlarni amalga oshirish, talabalar ishtirokini tahlil qilishda tyutorning faoliyati bilan bog'liq holda qamrab olinadi.



Diagnostika funksiyasi talabalar faoliyatining ijobjiy va salbiy bo'lgan jihatlarini baholashga imkon beradi.

Tyutorning ishida bu funksiya quyidagicha namoyon bo'ladi:

- talabalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni o'rganish;
- individual xususiyatlarni aniqlash, o'qitish (o'rganish uslubi, fikrlash turi, qobiliyatlarning rivojlanishi va boshqalar);
- o'qitish uchun o'quvchilarning o'rganishlarini, ularning- ehtiyojlar, motivlar, umidlar, qo'rquvlar va ularni keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash;
- tajriba, bilim va ko'nikmalarni aniqlash va o'qitish
- kurs mazmuni bo'yicha, shuningdek muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz yutuqlar tahlili
- oldingi o'rganish tajribasini tahlil qilish;
- talabalar tomonidan o'rganilayotgan kursning o'zlashtirish darajasining diagnostikasi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bilamizki, talabalarga tyutorlik qilishning zamonaviy yondashuvlari negizi – tyutor va talaba munosabatlariga asoslangan an'anaviy o'qitish uslubidir. Talabalarga tyutorlik qilishning asosiya maqsadi va motivatsiyasi quyidagi bir yoki undan ortiq sohalarda o'zgarishga ko'mak berishdan iborat:

- Ko'nikmalar
- Xulq-atvor
- Bilim darajasi
- Munosabatlar

Barcha tyutor trenerlar ish faoliyatida ular shug'ullanayotgan talabalar quyidagilarga qodir shaxslar ekanligini hisobga olib ish yuritishlari talab etiladi:

- O'z hayotini o'zlari zimmasiga oladi;
- O'z qarorlari va keyingi harakatlari uchun javobgarlikni his etadilar;
- Ta'lim bilan shug'ullanish kerakligi va uni qanday shaklda bo'lishini tanlaydilar;
- Fuqarolar, xodimlar, ota-onalar va boshqalar sifatida kattalar rolini bajaradilar.

Talaba o'quvchilarning xususiyatlari quyidagilarni kiritish mumkin:

- Avtonom va o'zini o'zi boshqaradigan
- Tajriba va bilimlar asosini to'playdigan
- Maqsadga yo'naltirilgan
- Tegishlilikka yo'naltirilgan
- Amaliyotga yo'naltirilgan
- Hurmat ko'rsatilishi kerak bolgan shaxs¹

Talaba - avtonom va o'zini o'zi boshqaradigan shaxs.

Talabalar o'z-o'zini to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirishi, nima o'rganishni xohlashini aniqlay olishi, o'rganish uchun qancha vaqt sarflashi va o'quv jarayoni qanday yo'nalishda qabul qila olishini tushunish uchun erkinlikka muhtoj bo'ladi. Talabalar shaxsiy ta'lim maqsadlarini ideal holda yaratishi kerak. Tabiiyki, buning uchun talabalar bilim va tushunchaga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ularning hayoti va ta'lim faoliyatida tyutorlar muhim o'rinn egallaydi. Tyutor talabani o'z ta'lim jarayoni va yo'nalishi uchun o'zi mas'ul bo'lishga undaydi. Masalan, dars mashg'ulotlaridan oldin qisqa muddatli suhbat o'tqizish va maslahat berish barcha samarali bo'ladi. Bu trening davomida talabalar darsda erishmoqchi bo'lgan maqsadlarini o'zlari aniqlab kirishadi.

Talaba - tajriba va bilimlar asosini to'playdigan shaxs.

¹ Malcolm Noulz (1970): "Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyotlari



Talabalar, bolalarga qaraganda, hayotning ancha keng tajriba va bilimlar doirasiga ega bo'ladi. Bular, masalan, dastlabki rasmiy va norasmiy ta'lim, oila yoki ish bilan bog'liq ko'nikmalar va tajribalarni o'z ichiga olishi mumkin. Tajribalar talabaning mashg'ulot va mavzuga munosabatiga ham ta'sir qilishi mumkin. Agar ular ta'lim sohasida dastlabki bilim ko'nikmalariga ega bo'lmasalar, oliv ta'limda yangi va murakkab bilimlar majmuini tushuna olmaydilar. Shuni hisobga olgan holda, tyutor murabbiy yangi mavzu borasida so'z ochishdan oldin, talabalarning bilim va malakalarini aniqlab olishi, tajriba almashishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talaba - maqsadga yo'naltirilgan shaxs.

Talabalar odatda o'quv jarayoniga ongidagi ma'lumbir maqsadlar bilan kirishadi va ushbu dars va ularning maqsadlari o'rtasida bog'liqlik borligini tushunganlarida darsni yaxshi o'zlashtiradilar. Ular o'quv mashg'uloti orqali qanday qilib o'z maqsadlariga erishish imkonini topishga qiziqadilar. Shuning uchun o'quv mashg'ulot belgilangan aniq maqsad va elementlardan iborat bo'lishi kerak va tyutor trener talabalarga ushbu mashg'ulotdan ular qanday foyda olishlari, maqsadlariga qay darajada erishishlari mumkinligi haqida aytib o'tishi muhimdir.

Talaba - tegishlilikka yo'naltirilgan shaxs.

Talabalar o'rganish uchun aniq sababni ko'rishlari kerak ya'ni ular uchun mazkur mashg'ulotlar shaxsiy hayoti va kelajak karierasi mobaynida dolzarbligiga ishonch hosil qilishlari kerak. O'rgangan bilimlarini ishi yoki boshqa muhim vazifalariga, masalan, oilada yoki jamiyatda qo'llashi mumkin. Shu sababli trening mavzusi, unga bog'liq nazariyalar va tushunchalarni talabalarga tanish bo'lgan muhit bilan bog'lash ahamiyatlidir.

Talaba – amaliyotga yo'naltirilgan shaxs.

Talabalar o'rganishda amaliy yondashuvga muhtoj. Ular amaliy faoliyatga jalb qilinish orqali juda yaxshi o'rganadilar. Ular kelajakda o'z manfaati uchun ushbu nazariy bilimlardan foydalanish maqsadida bilim olishga qiziqmasligi mumkin. Ular kelajakda emas balki avvalroq hozirgi faoliyatlarida foydalanishni hohlashadi. Shuning uchun tyutor murabbiy talabalarning o'rganganlarini qanday amalda qo'llay olishni tushuntirishi kerak. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlar ta'lim kontseptsiyasida markaziy o'rinni egallashi kerak shunda talabalarda bilim interfaol tarzda hosil bo'ladi va yangi olingan bilimlar ishtiokchilar tomonidan qo'llaniladi.

Talaba - hurmat ko'rsatilishi kerak bolgan shaxs.

Talabalar, barcha kabi, shaxslar sifatida hurmatga munosib insonlardir. Tyutor murabbiy talabalarning yetukligi, bilim va tajriba boyligini tan olishi kerak. Talabalarning tajriba, bilim va ko'nikmalari teng ko'rishi, fikr bildirishi uchun erkinlik berish kerak. O'zaro hurmat va ishonch o'quv muhitini hamkorlikda muvaffaqiyatli tashkil etishga sabab bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabalar o'quvchilarga qaraganda allaqachon ma'lum bir tajriba va bilim egallab, hayotning poydevorini shakllantirgan shaxslar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ular o'quv jarayoniga mavjud o'rnatilgan odatlar, oldindan o'ylangan fikrlar bilan kirishlari mumkin ya'ni ular o'z odatlari, fiklari va dunyoqarashiga ega insonlardir. Bu xususiyatlarning barchasini tyutorlik faoliyatini loyihalashda hisobga olish - tyutorlik ta'limi effektini optimallashtirish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon bir qancha metod va texnikalarni o'rganish va amalda qo'llashni talab etadi. Talaba shaxsini o'rganish va ular bilan turli trening/mashg'ulotlar olib borishda qanday xususiyatlar ahamiyatlari ekanini bilish uchun yuqorida berilgan ma'lumot va tavsiyalardan foydalanish bir miqdorda tyutorlarning faoliyati rivoji uchun o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Malkolm Noulz (1970): “Kattalar ta’limining zamonaviy amaliyotlari”
2. O’rinova N.M; Muxammadjonova M.I - “Talimda tyutorlik faoliyatining o’rni va ahamiyatli jihatlari” - Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi 11-son_8-to’plam Dekabr-2023
3. O’rinova N,M; Muxammadjonova M.I – “Edge Hill universitetida tyutorlik tizimi xususiyatlari” – Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный Фокус» Декабря, 2023
4. Facilitation skills and methods of adult education - A guide for civic education at grass roots level – Project supported by the EU.
5. Colma Keating (2003): Facilitation Toolkit, p.3
6. Penny L. Ittner & Alex F. Douds (1988): Train the Trainer. Practical Skills that Work